

## МЕТАФОРЛАР ШАКЛЛАНИШИДА АССОЦИАТИВ ТАФАККУРНИНГ ЎРНИ

**Xudoyberganova D. S.**

*O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti bo‘lim mudiri  
filol.fan.d-ri, prof.*

**Annotatsiya.** *Maqolada metaforalar yaratilishining antropotsentrik jihatlari, mazkur birliklar shakllanishida assosiativ tafakkurning shakllanishida o‘rni xususida so‘z yuritilgan.*

**Аннотация.** *В статье рассматриваются антропоцентрические аспекты создания метафор, роль ассоциативного мышления в формировании этих единиц.*

**Kalit so‘zlar.** *Metafora, assosiativ tafakkur, milliy-obrazli tafakkur, stereotiplar, etnik stereotiplar, lingvomadaniy kontekst, lingvomadaniy kodlar.*

**Ключевые слова.** *Метафора, ассоциативное мышление, национально-образное мышление, стереотипы, этностереотипы, лингвокультурный контекст, лингвокультурные коды.*

Zamonaviy tilshunoslikda metafora hodisasining antropotsentrik jihatlari qiziqish tobora ortib bormoqda. Ushbu til birligi stilistik yoki lingvopoetik maqsadlarda qo‘llanuvchi til bezagigina emas, inson tafakkurining muhim quroli ham ekanligi umumtilshunoslikda e‘tirof etilgan haqiqatlardan biridir.[1; 45]

O‘zbek tilshunosligida metafora anchayin batafsil o‘rganilgan mavzulardan hisoblansa-da [2], bu borada muayyan tadqiqotlarni amalga oshirish obyektiv zaruriyat bo‘lib turibdi. Milliy tilshunosligimizda mazkur birliklarning antropotsentrik jihatlari, xususan, metaforalar yaratilishining kognitiv, lingvomadaniy, assosiativ, pragmatistik omillarini aniqlash, shuningdek, metaforalarning turlari hisoblangan gap – metaforalar, matn – metaforalarni o‘rganish [3] shular jumlasidandir.

Har qanday so‘zning boshqa bir tushunchani anglatishga moslashishi – metaforik birlikning shakllanishi o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladigan hodisa emas. Bunda milliy stereotiplar, lingvomadaniy kontekst, til sohiblarining bilim va tajribalari, milliy-obrazli tafakkuri, voqelikni idrok etish tarzi, assosiativ tafakkuri kabi omillar borki, ular metafora yaratilishining kognitiv bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada biz o‘zbek tilidagi ayrim metaforik birliklar tahlili misolida bu kabi lisoniy birliklarning yaratilishida assosiativ tafakkurning roli xususidagi mulohazalarimizni bayon etmoqchimiz.

**Baquvvat.** Jamiyat va ijtimoiy munosabatlarga doir tushunchalar haqidagi metaforalar guruhiga kiruvchi ushbu so‘z metaforik birlikka aylanganida “g‘oyaviy-badiiy jihati yuqori darajada bo‘lgan” ma‘nosida qo‘llanadi: *U menga yangi she‘rlarini keltirib berdi. Bu she‘rlar ham avvalgilaridan qolishmaydigan baquvvat she‘rlar edi.* O.Sharafiddinov, Shoirlikning og‘ir yuki. *Chindan ham baquvvat asar edi.* O.Yoqubov, Mening xotiralarim.

*Baquvvat* so‘zining bosh ma‘nosi til sohiblari ongida inson organizmining kuchliligi, pishiqligi, sog‘lom ekanligi haqidagi assotsiatsiyalarni paydo qiladi. *Baquvvat* metaforasi mazkur assotsiatsiyalarni ideal hodisa bo‘lgan badiiy asarga nisbat berish natijasida yuzaga kelgan. Bunda asarning yuqori darajadagi badiiy-estetik xususiyatlari bilan inson organizmining me‘yordan ortiq kuchliligi o‘zaro qiyoslangan. O‘zbek lingvomadaniyatida *baquvvat* so‘zi *iligi baquvvat, iymoni baquvvat, beli baquvvat* iboralarining, *Eli baquvvatning beli baquvvat* maqolining tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur barqaror birliklardagi *baquvvat* so‘zi belgi-xususiyat lingvomadaniy kodi hisoblanib, ushbu birliklarning lingvomadaniy mazmuni shakllanishida asosiy uzv vazifasini bajargan. *Baquvvat* metaforasi badiiy, publitsistik matnlarda faol qo‘llanib, obrazlilikni yuzaga keltirishga xizmat qiladi.

**Girdob.** Inson haqidagi metaforalar guruhiga kiruvchi mazkur so‘z metaforik ma‘noda “insonning xayolini o‘rab olgan, butunlay band qilgan o‘ylar, tuyg‘ular; muayyan kayfiyat” ma‘nosini ifodalaydi. Masalan: *E voh, amlar girdobi azob-u uqubatlarga bunchayam to‘lmagan bo‘lsa?* T.Yo‘ldoshev, Chirmoviq. *Sirli tuyg‘ular girdobi uni tobora o‘z domiga tortayotir.*

*Girdob* so‘zining bosh ma‘nosi “suvning buralib, uyurma hosil qilib oqadigan yeri” dan iborat. Ma‘lumki, suvda oqib kelayotgan narsa girdobga tushib qolsa, suv bilan birga aylanib, uning domidan chiqib keta olmaydi. *Girdob* so‘zining metaforik ma‘nolari til sohiblarining mana shu jarayon haqidagi bilim va tajribalari asosida yuzaga kelgan. Girdobga tushib qolgan narsa undan chiqib keta olmagan kabi, inson o‘z xayolini butkul band etgan his-tuyg‘ular ta‘siridan tezda qutula olmaydi. Til sohiblarining kognitiv faoliyatida qiyoslangan mazkur holatlar *girdob* so‘zining metaforik ma‘noda qo‘llanishini ta‘minlagan. Xarakterli jihati shundaki, *girdob* so‘zi qo‘llangan kontekstda unga mantiqiy aloqador bo‘lgan *g‘arq bo‘lmoq, dom, tortib ketmoq* so‘zlari ham ko‘chma ma‘noda qo‘llanadi, buning natijasida esa butun bir jumla ham metaforik mazmun kasb etadi. Umuman, bu deyarli barcha metaforalarga xos bo‘lgan xususiyat hisoblanadi. *Girdob* metaforasi pragmatistik nuqtayi nazardan tasviriylik yaratish maqsadida yuzaga kelgan. Mazkur so‘z ushbu ko‘chma ma‘nosi bilan naturmorf lingvomadaniy kodlar guruhidan joy oladi.

**Alangalanmoq.** Mazkur so‘z metaforik ko‘chimga uchraganida “zo‘raymoq, jo‘shqin tus olmoq” ma‘nosida qo‘llanadi. Misol: *Bu so‘zni eshitish bilan Nurining so‘ngan umidi alangalandi, ko‘kragi yoniq orzular bilan to‘ldi.* Oybek, Qutlug‘ qon. ... *Nahotki, firoq cho‘zilgan sayin muhabbat alangalanib zo‘r iztirobga do‘ngani barobarida yo‘l-yo‘lakay bir chimdim ilohiylikka ham yo‘g‘rilib olsa?! U. Hamdam, Yolg‘izlik.*

*Alangalanmoq* metaforasi “tuyg‘u – bu yonuvchi jism” konseptual metaforasi asosida hosil bo‘lgan metafora hisoblanadi. *Alangalanmoq* fe‘li til sohiblari ongida biror jismning yolqinlanib, shiddat bilan yonishi haqidagi assotsiatsiyani hosil qiladi. Mazkur so‘zning yuqoridagi misollarda ko‘rsatilgan ko‘chma ma‘nosi inson qalbidagi biror tuyg‘uning yanada kuchayishini mana shu fizikaviy jarayon bilan qiyoslash mahsuli hisoblanadi, bunda jismning yolqinlanib yonishi bilan muayyan tuyg‘uning yanada shiddatli tus olishi o‘rtasidagi o‘xshashlik e‘tiborga olingan. *Alangalanmoq* metaforasi harakat-holat lingvomadaniy kodi hisoblanib, ta‘sirchanlikni oshiruvchi leksik vosita sifatida badiiy uslubda faol qo‘llanadi. Mazkur metafora ham inson haqidagi metaforalar guruhiga kiradi.

**Chaqmoq.** “Tinglovchining ko‘ngliga qattiq botadigan achchiq gaplarni aytmoq” ma‘nosida qo‘llanuvchi *chaqmoq* metaforasi inson haqidagi metafora hisoblanadi. Misollar: *Zaynab zimnan Kumushni chaqib oldi. Kumush loy kabi bo‘shashib, Oftob oyim ham og‘ir tortdi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. *Xotini bir kosa ovqatni oldiga qo‘yayotib, yana chaqib oldi: “Ularga ham qolsin, deyapsizmi? Mo‘l-ko‘l qilib olganmiz-u, hammaga yetadi, yeyversangiz bo‘lardi”.* J.Ergasheva, Mehmondorchilik.

Bosh ma‘nosi “tishlab zahar solmoq” ifodali *chaqmoq* so‘zi til sohiblari xotirasida ilon, chayon, ari kabi chaquvchi jonivor va hasharotlar, ularning chaqib olish harakati, shuningdek, zahar va uning zarari haqidagi tasavvurlarni hosil qiladi. *Chaqmoq* metaforasi insonning zaharli gaplari bilan bironing dilini og‘ritishi va ilon, chayon, ari kabilarning odamni chaqib, unga ozor yetkazishi harakatini o‘zaro o‘xshatish natijasida yuzaga kelgan. Bunda til sohiblarining ushbu vaziyat haqidagi bilim va tajribalari asosiy omillardan biri bo‘lgan. *Chaqmoq* so‘zi asosida yuzaga kelgan mazkur metafora o‘z ko‘chma ma‘nosi bilan ekspressivlik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan hamda harakat-holat lingvomadaniy kodlari guruhidan joy olgan.

**Uyg‘onmoq.** Metaforik ma‘nosi – “harakatga kelmoq, jonlanmoq”. *Ko‘klam kirib qoldi, – dedi havoni iskab, – sezyapsanmi, Bashor, tuproq hidi kelyapti. Yer uyg‘ondi!* O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi. *Uyg‘onguvchi bog‘larni kezdin, topay dedim qirdan izingni.* A.Oripov, Sen bahorni sog‘inmadingmi?

*Uyg‘onmoq* fe‘li tinch holatdan harakatli holatga o‘tish jarayonini ifodalaydi. Ushbu fe‘lning “harakatga kelmoq, amalga kirmoq” ma‘noli sememasi asosan ko‘klam vaqtida

jonlanadigan dala, dov-daraxtga, umuman, tabiatda yuz beradigan o‘zgarishlarga nisbatan qo‘llanadi. Yalang‘och daraxtlarning yaproq chiqarib, gulga kirishi, bahor oftobida qizigan tuproqdan hovur ko‘tarilishi kabi o‘zgarishlar til sohiblari tomonidan uyqudan uyg‘onib, harakat qilishga kirishgan odamning holatiga o‘xshatilgan. *Uyg‘onmoq* metaforasi antropomorf metafora hisoblanadi, chunki unda odamga xos xatti-harakatlar tabiat unsurlariga ko‘chirilgan.

Mazkur so‘zning 2-ma‘nosi – “paydo bo‘lmoq, qo‘zg‘almoq, yuzaga kelmoq”. Masalan: *Simtikondan uzoqlashishgani sayin ularni umid hissi tobora chulg‘ab borar edi. Hatto Rahmatullohdan ilinj uyg‘ona boshlagandi. T.Malik, Ov. Qizning aqlni shoshiradigan jozibasi bor edi. Bu joziba mulla Fazliddinni har galgiday yana sehrlab oldi, boyagi tahlika xayolidan uzoqlashib, qalbida iliq tuyg‘ular uyg‘ondi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar.*

Mazkur metafora ham *uyg‘onmoq* fe‘lining tinch holatdan harakatli holatga o‘tish jarayonini ifodalashi haqidagi assotsiatsiyalarga asoslangan. Bunda odamning ruhiyatida muayyan his-tuyg‘ularning paydo bo‘lishi uyquda harakatsiz yotgan odamning qo‘zg‘alishiga o‘xshatilgan. *Uyg‘onmoq* so‘zi asosida hosil bo‘lgan har ikki metafora harakat-holat lingvomadaniy kodi hisoblanadi. Ushbu so‘zning ko‘chma ma‘no kasb etgan har ikki sememasi badiiy uslubga xoslanib, konnotativ bo‘yoqqa ega bo‘lgan birlik sifatida badiiy va publitsistik matnlarda faol qo‘llanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, metaforik ma‘no kasb etgan har qanday lug‘aviy birlik o‘zi mansub tilning lingvomadaniy kodiga, binobarin, uning jozibasini namoyon etuvchi lisoniy boylikka aylanadi. Til sohiblarining assotsiativ tafakkuri va uning natijasi o‘laroq yuzaga kelgan xulosalar – sereotiplar metaforalar tabiatini, uning kognitiv hamda lisoniy xususiyatlarini o‘rganishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем: Пер. с англ. / Под ред. и с предисл. А. Н. Баранова. — М.: Едиториал УРСС, 2004.

2. Махмараимова Ш. Оламнинг миллий-лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти: Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри (PhD) автореф. — Қарши, 2018; Shu muallif. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи (номинатив аспект): Филол.фан.д-ри дис. — Қарши, 2020.

3. Худойберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол.фан. д-ри дисс. — Тошкент, 2015.